

"Yilning eng faol yosh xodimi" ko'rik-tanlovi g'oliblari aniqlandi

// 15.06.2026

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/yilning-eng-faol-yosh-xodimi-ko-rik-tanlovi-g-oliblari-aniql>



"O'zkimyosanoat" AJ tizimi xodimlari o'rtasida o'tkazilgan **"Yilning eng faol yosh xodimi"** ko'rik-tanlovining respublika bosqichi yakunlari bo'yicha g'olib va sovrindorlar aniqlandi.



Tanlov natijalariga ko'ra:

"Yilning eng faol yosh xodimi" nominatsiyasi g'olibi:

1-o'rin - Otabek Tursunboyev - "Maxam-Chirchiq" AJ yosh xodimi;

2-o'rin - Farhod Erkinov - "Navoiyazot" AJ yosh xodimi;

3-o'rin - Behruz Xayrilloyev - "Navoiyazot" AJ yosh xodimi.



Ishtirokchilar tanlov davomida kasbiy bilim va ko'nikmalari, tashabbuskorligi, liderlik salohiyati hamda jamoatchilik faolligini namoyon etdilar. **Ko'rik-tanlov yosh xodimlarning salohiyatini ro'yobga**

chiqarish, ularni qo'llab-quvvatlash hamda tizimda iqtidorli kadrlar zaxirasini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

G'olib va sovrindorlarni ushbu yutuq bilan samimiy tabriklaymiz hamda kelgusi faoliyatlarida ulkan muvaffaqiyatlar tilaymiz.

